

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

5-2023

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>F.A.Yuldashev</b> Axborotlashgan jamiyatda ehtiyoj va manfaatlarni tadqiq etishning muhim jihatlari .....	108
<b>M.M.Teshaboyev</b> Jamiyatda ijtimoiy adolat va ijtimoiy tenglik .....	115

---

SIYOSAT

<b>H.M.Rasulov</b> Ommaviy axborot vositalari - siyosiy-huquqiy madaniyat targ'iboti subyekti sifatida .....	120
<b>K.X.Avazov</b> Siyosiy tadqiqotlar tizimida tahdid, tahdidbardosh jamiyat tushunchasining mazmun-mohiyati.....	124
<b>B.M.Jo'raquziev</b> Yangi O'zbekistonda "inson – jamiyat – davlat" tamoyilining qaror topishi xususida .....	129
<b>D.A.Mamajonova</b> Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini ta'minlash. ma'muriy, jinoyat va fuqarolik qonunchiligini takomillashtirish.....	133
<b>I.A.Raximov</b> "Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlarining-milliy demokratik institut sifatidagi o'rni" .....	138

---

TARIH

<b>E.G.Radjabov</b> Badiiy hamda san'at asarlarida o'zbek tog'-otliq diviziyasi qo'mondoni Mirkomil Mirsharopov talqini .....	142
<b>B.M.Abdullayev, N.Sh.Kambarov</b> Ilk Temir davrida ko'mish marosimiga oid .....	148
<b>X.S.Jumanazarov</b> Turkiston o'lkasida tibbiy muassasalar faoliyati tarixi.....	154
<b>S.R.Tolibova</b> O'zbekistonning Osiyo davlatlari bilan hamkorlik yo'nalishlari (Asean davlatlari misolida) .....	159
<b>X.X.Azimov</b> Qadimgi va ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo va Xitoy savdo aloqalari (Xitoy manbalari asosida) .....	167
<b>K.S.Karimov</b> Turkistonda mustamlaka huquqiy taksanomiyasi ta'sirida xalq sudyalari lavozimiga tayinlash tartiblari.....	171
<b>N.Xudoyberdiyeva</b> Mustaqillik yillarida Surxondaryo viloyatida tadbirkorlikning rivojlanishi .....	176
<b>F.U.Temirov</b> Turkistonda matbuotchilikning shakllanishi va Sadridin Ayniyning publisistik faoliyati .....	179
<b>M.H.Isamiddinov</b> O'zbekistonning antik davr moddiy madaniyatining o'ziga xos tomonlari.....	183

---

ADABIYOTSHUNOSLIK

<b>A.G.Sabirdinov</b> Omon Muxtor romanlariga chizgilar .....	188
<b>M.H.Mamatov, P.M.Ahmadchonov</b> Sayfiddin Muhammad Farg'oniy ijodida tasavvufiy tamoyillar .....	191
<b>P.M.Axmadjonov</b> Sayf Farg'oniyning tarjimai holi va hayot yo'liga doir .....	195
<b>G.H.Axmedova</b> Ingliz adabiyotida jorj eliotning ijodi va tanqidiy realizm .....	200
<b>G.V.Abdullayeva</b> Topishmoq she'rlar va ularning badiiy-estetik funksiyasi .....	204

**TURKISTONDA MATBUOTCHILIKNING SHAKLLANISHI VA SADRIDDIN AYNIYNING  
PUBLISISTIK FAOLIYATI**

**ФОРМИРОВАНИЕ ПУБЛИЦИСТИКИ В ТУРКЕСТАНЕ И ПУБЛИЦИСТИЧЕСКАЯ  
ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ САДРИДДИНА АЙНИ**

**FORMATION PRESS IN TURKISTAN AND THE JOURNALISTIC ACTIVITY OF  
SADRIDDIN AINI**

<sup>1</sup>**Temirov Farrux Umedovich**

<sup>1</sup>Buxoro davlat universiteti, t.f.f.d (PhD) dotsent

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada ma'rifatparvar adib va jamoat arbobi Sadridin Ayniyning ilmiy-ijodiy yo'li, Turkistonda matbuotchilikni rivojlantirish, ilmiy nashriyotlarni ko'paytirish, yangi maktablar uchun o'quv qo'llanma va darsliklar yaratish yo'lida olib borgan samarali faoliyati to'g'risida, shuningdek olimning asarlari va maqolalarida Buxoro va Turkistondagi jadid maktablari hamda dastlabki matbuot organlari haqidagi muammolar ilmiy jihatdan tahlil qilingan.*

**Аннотация**

*В статье описывается научный и творческий путь писателя-просветителя и общественного деятеля Садриддина Айни, его эффективная работа по развитию публицистики в Туркестане, увеличению количества научных издательств, созданию учебников и пособий для новых и джадидских школ в Бухаре, в том числе научно проанализированы информации о ранних органах прессы.*

**Abstract**

*This article gives information about the scientific and creative path of the enlightened writer and public figure Sadridin Aini as well as his effective works on the development of the press in Turkestan, in the expansion of scientific publications, in the creation of textbooks and manuals for new schools. Also, this article mentions Jadid schools in Bukhara. The problems of the organs have been scientifically analyzed as well in the given article.*

**Kalit so'zlar:** *Ma'rifatparvar, jadid, matbuot, qo'llanma, darslik, Oyina, Inqilob, Mehnatkashlar tovushi, Zarafshon, Hurriyat, Inqilob shu'las, yozuvchi, sharqshunos olim, shoir, publisist, jurnalist, mohir pedagog, adabiyotshunos.*

**Ключевые слова:** *Просветитель, джадид, пресс, учебное пособие, учебник, Ойина, революция, Мехнаткашлар товushi, Зарафшан, Хуррият, Инкилоб шу'ласи, писатель, учёный- востоковед, поэт, публицист, журналист, искусный педагог, литература.*

**Key words:** *Enlightenment, Jadid, Press, Guide, Textbook, "Mirror", Revolution, "Voice of Workers", "Zarafshan", "Hürriyet" Revolutionary Light, writer, orientalist, poet, publicist, journalist, skilled pedagogue, literary critic*

**KIRISH**

Jahon miqyosida globallashuv asri bo'lmish XXI asrga kelib zamonaviy adabiyotga talaygina yangiliklar kiritilmoqda. Bu yangiliklar bir tomondan tabiiy rivojlanib, milliy adabiyot taraqqiyotining hissasi bo'lsa, ikkinchi tomondan Yevropa va jahon ta'siridagi o'zgarishlardir. Shuning barobarida jamiyatning axborotlashuvida adabiyot va tarix muhim rol o'ynamoqda. Dunyoning ilmiy tadqiqot markazlarida turkistonlik mutafakkir allomalarning ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, XIX asrning oxiri – XX asr boshlarida musulmon mamlakatlari ijtimoiy-siyosiy hayoti, jadidchilik harakatining vujudga kelishi hamda jadid namoyandalarning bu harakatda tutgan o'rni va matbuotchilik faoliyati o'rganilmoqda. O'z ijodi bilan maktab yaratgan Sadridin Ayniyning ilmiy merosi, jadidchilik faoliyati ham dunyo ilmiy jamoatchiligi tomonidan munosib e'tirof etilgan.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

Sadridin Ayniyning ilmiy ijodiy faoliyati, tarixiylik, ijtimoiy-madaniy qarashlari, uning ijodida Turkiston tarixi, qolaversa Farg'ona tarixi masalalari ham alohida o'rinni egallaydi. Bu mavzu doirasi keng va dolzarb bo'lib kelganligi uchun qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Mavzuga doir adabiyotlarni quyidagi guruhlariga bo'lib o'rganish mumkin: 1. Mustaqillik yillarida O'zbekistonda nashr qilingan ishlar. 2. Xorijda yaratilgan tadqiqotlar.

**NATIJARLAR VA MUHOKAMA**

O'zbek matbuoti Turkiston tarixidagi jadidchilik harakati bilan tabiiyki bog'lanadi. Aslida jadidchilik ancha chuqur, murakkab, ziddiyatli, ayni damda, yangiliklarga, ezgu orzu-niyatlarga,

amaliy faoliyatlarga to'la bir ijtimoiy-siyosiy, adabiy-ma'rifiy harakatdir. Jadid ziyolilari uchun eski usuldagi maktablarni isloh etish, badiiy adabiyotni yangi o'zanga solish, teatr sahnasidan ibratxona o'rnida foydalanish naqadar muhim bo'lsa, milliy matbuot tashkili va taraqqiysi ham shu darajada ahamiyatli edi. Samarqandlik jadid muharriri Hoji Muin ta'kidlaydi: "Matbuot bir millatni uyg'otish uchun birinchi omil bo'lg'onidek, uning tarixi ham "uyg'onish davri" tarixining muhim bir bo'lagi sanaladur". Darhaqiqat, matbuot, nashriyotchilik o'zbek jadidchilik davri tarixida juda muhim o'rin tutadi.

Millat ma'naviyatini isloh etish, odamlarni ma'rifatli qilish, olamga ochiq nazar bilan boqishga o'rgatish va tafakkurni uyg'otishning eng asosiy omili sifatida jadid muharrirlari matbuotning qadrini baland ko'tardi. Matbuot ular nazdida fikrlar tilmochi, millat va el-yurt rivoji yo'lida xizmatchi, odamlar ongu shuurining quyoshi, har kimning vijdoniga tutilgan ko'zgu bo'lmog'i lozim edi.

Turkistonlik ziyolilar o'zlari gazeta chiqargunga qadar bir muddat Qrimga – Boqchasaroyga ko'z tikishdi. Ismoilbek Gasprinskiyning "Tilda, fikrda, ishda birlik" degan g'oyalariga havaslanib qarashdi. Jadidlar shu allomaning "Tarjimon" (1883–1914) gazetasini o'qib, uning muxlisi va muhibiga aylanishdi. Gazeta til va fikr birligi masalasini kun tartibiga qo'ydi, uning yo'li, maslagi va maqsadi aniq edi: "Tarjimon" – har turli ish, ahvol va ixtilofga "haqqoniyat" va "mumkiniyat" jihatidan boqajakdir. "Tarjimon" tavhidi lison, tavhidi afkor va maorifi milliya masalalarida g'ayrati doimiyda bo'lajakdir. "Tarjimon" – har na so'ylar va yozar bo'lsa, bu kunda millatning anglami, idrok va qabul etishi suratda arz va bayon etajakdir". Garchi "Tarjimon"ning Turkistondan o'quvchilari ko'p bo'lsa ham, bosilishining boshlarida turkistonlik yozuvchilar juda kam – onda-sonda ishtirok etdi.

Biroq XX asrning o'ninchi yillaridan boshlab Mahmudxo'ja Behbudiy (Samarqand), Oxund mulla Mavdud Ohimov (Toshkent), Mirhusayn Mirrahimov (Qo'qon), Abduqodir Shakuriy (Samarqand), Hoji Mu'in (Samarqand), Qozi Ziyouddin Mahmud ibn Domla va mudarris Fayzrahmat (Buxoro) kabilar qatnashadi. Mualliflar ba'zan maqola-xabar yozishsa, ayrim hollarda "Tarjimon"dan o'zlarining eng muhim savollariga javob olish niyatida maktublar yo'llaydi.

XX-asr boshlarida jadidchilik harakatining katta ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida maydonga chiqishida Turkistonning o'zida ham asosiy omil bo'lib xizmat qilgan zamin va shart-sharoit yetilgan edi. Bu omil matbuot, nashriyot va publisistika sohalari bilan bevosita bog'liq holda kechdi. Jadid matbuotchiligi 1905 yildan keyin maydonga keldi. Biroq bunda ikki omil: 1). Turkistondagi mavjud o'zbekcha, aytish mumkinki, yagona nashr – "Turkiston viloyatining gazetasi"; 2). Usmonli turk, Kavkaz orti, Volgabo'yi matbuotining ham roli katta bo'ldi. Ta'kidlash joizki, Turkiston matbuoti umumrusiya musulmon matbuoti bilan qadam-baqadam birga rivojlanib boraverdi, o'lka aholisining turmushi, bu yerdagi diniy ahvol, odamlarning turli xurofotlarga berilib ketganligi va milliy taraqqiyot bilan bog'liq masalalarni ko'tarib chiqdi va ularning yechimini topishga intildi.

Turkiston matbuoti 1905 yildan keyin tarixan qisqa muddat ichida katta bosqichni bosib o'tdi, natijada ko'plab gazeta va jurnallar nashr etildi. Abdulla Avloniy "Burungi o'zbek vaqtlari matbuotining tarixi" maqolasida 1905-1917 yillar oralig'ida Turkistonda o'zbek tilida 22 ta gazeta, 8 ta jurnal nashr etilganini xabar beradi. 1927 yilda "O'zbek vaqtlari matbuoti tarixiga materiallar (1870–1927)" tadqiqotini chop ettirgan Ziyoz Saidning aniqlashicha o'tgan oraliq davrda 45 ta gazeta, 36 ta jurnal dunyo yuzini ko'rgan.

Jumladan: "Tarjimon" (Bog'chasaroy, 1883-1917), "Vaqt" (Orenburg, 1907-1917), "Buxoroyi sharif" (Yangi Buxoro, 1912-1913), "Sho'ro", "Samarqand" (Samarqand, 1913 yil 16 aprel – 1913 yil 17 sentyabr), "Sadoi Turkiston" (Toshkent, 1914-1915), "Sadoi Farg'ona" (Farg'ona, 1914-1915), "Hurriyat" (Samarqand, 1917-1918), "Uchqun" (Toshkent, 1920), "Qutulish" (Toshkent, 1919), "Mehnatkashlar tovushi" (Toshkent, 1919-1921), "Buxoro axbori" (Eski Buxoro, 1920-1923), "Turkiston" (Toshkent, 1922), "Zarafshon" (Toshkent, 1922-1923) kabi gazetalar, "Oyina" (Samarqand, 1913-1915), "Al-Isloh" (Toshkent, 1915-1918), "Tayoq", (Samarqand), "Mashrab" (Toshkent, 1924 – 1925), "Mulla Nasriddin" (Tiflis, 1909-1911), "Vaqt" (Orenburg, 1916 – 1918), "Bolalar yo'ldoshi", (Samarqand, 1919), "Bolalar dunyosi", "Shu'lai inqilob" (Samarqand; 1919 – 1921), "Tong" (Buxoro, 1923) "Maorif va o'qituvchi" (Toshkent; 1923 – 1929) jurnallarda mavzu tadqiqotiga oid muhim materiallar mavjud. Unda, S.Ayniyning publisistik, matbuotchilik va murabbiylik faoliyatiga oid ma'lumotlar berilgan. Ushbu gazeta va jurnallarda ma'rifatparvar adib,

## TARIX

publisist olim “S.Ayniy”, “Qof Sin”, “Sin Mim”, “Qof Alif”, “S. M”, “Q. S”, “S. X”, “S”, “X”, “Q. A”, “S. Q”, “S. A” va boshqa imzolar ostida maqolalar, hajviyalar, she’rlar yozgan.

Ma’rifatparvar Hoji Muin S.Ayniyning Samarqandda milliy matbuotchilikni rivojlantirish yo’lida qilgan xizmatlarini alohida qayd etib: “Mehnatkashlar tovushi” gazetasining tarjima va tahrir ishlarida bir muddat Saidrizo Alizoda, Muhammadjon Yusufiy, Qori Muhammadrahim Toji, Sadridin Ayniy afandilar xidmat etdilar. Bularning ichida birinchi darajada uzun muddat ishlagan kishi shubhasiz Ayniy afandi edi. “Bolalar yo’ldoshi” (jurnal) majmuasining muharriri Xabir, mas’ul mudiri Abdurashid Abdujabbor o’g’li edilar. Buning tahrir hay’atida Ayniy afandi ham bor edi. “Shu’lai inqilob” jurnal-majmuasining doimiy yozg’uvchilari faqat Saidrizo Alizoda bilan Ayniy afandi edilar”.

Xorijiy matbuot targ’iboti kuchayib, Buxoroda ham mahalliy matbuotga asos solish harakatiga kirishildi. Yosh buxoroliklarning “Tarbiyai atfol” (“Bolalar tarbiyasi”) maxfiy jamiyatining faol a’zolari tomonidan amir hukumati roziligi bilan Yangi Buxoro (Kogon)da “Buxoroi sharif” gazetasi fors-tojik tilida chop etila boshlandi. 1912-yilning 11-martidan 1913-yil 12-yanvargacha 153-soni chiqqan “Buxoroi sharif” gazetasi faoliyatida S.Ayniy faol ishtirok etdi. Unda adibning ijtimoiy-ma’rifiy yo’nalishdagi bir qator maqolalari bosildi. Ushbu maqolalar turli mavzularda bo’lib Buxoro hayotiga oid masalalarni publisistik talqin etgan. Shuningdek, ushbu gazetada o’sha davrning taniqli ma’rifatparvarlaridan Fitrat, Mirzo Sirojiddin Hakim, Sahbo, domla Ikromcha, Samad Mansur, Hamidxoja Mehriy va Mirza Jalol Yusufzodalar ham o’zlarining publisistik yo’nalishdagi maqolalari bilan qatnashib turishgan.

S.Ayniy Turkiston mintaqasida chop etilgan mahalliy matbuot organlarida o’zining o’tkir publisistik maqolalari bilan faol ishtirok etadi. Turkiston jadidchilik harakatining g’oyaviy rahnamosi va otasi sifatida nom qozongan Mahmudxo’ja Behbudiy (1875-1919 y.) asos solgan “Oyina” jurnalining ilk soni 1913-yil 20-avgustda Samarqandda chop etiladi. Unda Abdurauf Fitrat, Siddiqiy Ajziy, Hoji Muin Shukrullo, Akobir Shomansur, Muhammad Said, Saidrizo Alizoda, Saidahmad Vasliy Samarqandiy, Tavallo, Sadridin Ayniy, Hakim Buxoriy, Niyoziy Rajabzodalar qatnashgan. “Bu jurnal “Oyina” chiqquncha chiqqon jurnallarning eng birinchi va yaxshisi edi”. “Oyina” jurnali Turkiston matbuoti tarixiga yurt ozodligi va obodligi uchun kurashgan nashr sifatida kirdi”.

“Oyina” majallasining bir necha raqami 1331-yil shavvol oyinda (1913-yil, avgust) chiqib, 1333-yil sha’bon 15-gacha davom qilg’on (1915-yil 15-iyun). Bu muddatda 68 raqamda 1720 sahifalik “Oyina” chiqq’on. “Oyina” jurnali 1913-yil 2-avgustidan, 1915-yilning oktyabriga qadar chiqib, 68 ta soni dunyo yuzini ko’rdi. Bu majmua turki (o’zbek) va forsiy (tojik) tilida Mahmudxo’ja Behbudiy Samarqandiy mas’ulligida Samarqandda nashr bo’lardi”. Behbudiyning tashabbusi va rahbarligida chiqqan “Oyina” jurnalida S.Ayniy turli mavzudagi maqola va she’rlari bilan qatnashib turdi. Ushbu jurnalda S.Ayniyning “Nido ba javonon” (“Yoshlarga murojaat”), “Har bir millat o’z tili ila faxr etar” “Moziy va hol”, “Hasrat”, “Na o’ldi yo rab”, “Marsiya ba Mirzo Sirojiddin Hakimi Buxoroy” kabi ayrim she’r va maqolalari chop etilgan.

S.Ayniy “Oyina” jurnalidagi “Har bir millat o’z tili ila faxr etar” maqolasida tilga hurmat, unga yevropacha so’zlarni, ularning turkiy tilda ma’nodoshi bo’lsa ham qo’shib ishlatish tilimizga putur yetkazishini kuyunchaklik bilan yozadi va boshka tillarni o’rganish bilan bir vaqtda xar bir millat o’z tilining muxofazasi bilan shug’ullanishi shart degan fikrlarni ilgari suradi va uni juda ko’plab dalillar bilan isbotlab beradi.

“Zamonamizdagi eng muhim masalalardan birida til masalasidir. Hushyor millatlar muning ahamiyatini barcha masalalardan ortiq sanaydurlar. Chunonchi, tillarini kundan-kun soflandurub, tillari ichiga kirgan begona so’zlarni tashqari otib, isloh qilurlar. Bir darajagacha tillaridan xabardorlik qiladurlarkim, o’rni kelganda bir ajnabiy so’zi o’rniga ikki yo uch kalima o’z so’zlaridan qo’shib ado qiladurlar. Mana shul sababdan adabiyot va milliyatlari kundan-kun taraqqiy qilib bormoqdalar. Darvoqe, qaysi bir millatkim o’z tilini begona lug’atlardanozod saqlasa va o’z millatini muhofaza qilsa, din va oyinini qo’ldan bermaydur. Ammo biz turkistonliklar esa g’aflet va jaholatimizning ko’pligi sababli, bu muhim masaladan ham bexabarmiz”.

1918-1920-yillarda S.Ayniy Samarqandda asosan, ta’lim-tarbiya ishlari bilan mashg’ul bo’ldi. Shuningdek, u “inqilob”ni madh etuvchi va eski tuzumni tanqid ostiga oluvchi badiiy - tarixiy publisistik maqolalar va she’rlar yozishga zo’r beradi. Ularning aksariyati Samarqandda chiqadigan “Shu’lai inqilob” (“Inqilob shulasi”), “Bolalar yo’ldoshi”, “Tayoq” jurnallari va “Mehnatkashlar

tovushi”, “Zarafshon”, “Hurriyat” gazetalarida chop etiladi. Bu haqda S.Ayniyning o‘zi shunday yozadi: “Samarqandda tojik tilida “Shu’lai inqilob” jurnali va “Mehnatkashlar tovushi” nomidagi o‘zbek tilida gazeta nashr bo‘lardi. Men bularning ikkalasiga ham xizmat qilardim. O‘sha vaqtlarda mahalliy kadrlar yetishmas, ozchilikni tashkil qilar edi, shuning uchun ham men bu jurnal va gazetaning ko‘p qismini turli imzolar bilan maqolalar yozib to‘ldirar edim. Ikki tilda she‘r yozardim, ikki tilda maqolalar yozardim”.

O‘zbek milliy ziyolilaridan Hoji Muin Shukrullo (1883-1942-y) o‘z davrida S.Ayniyning Samarqandda milliy matbuotchilikni rivojlantirish yo‘lida ko‘rsatgan xizmatlarini alohida qayd etib, “Mehnatkashlar tovushi” gazetasida shunday yozadi: “1918-yilda (11-iyunda) sho‘ro hukumati tomonidan “Mehnatkashlar o‘qi” otliq gazeta chiqarildi. Buning mas‘ul muharrirligiga Hoji Muin, tahrir hay‘atiga Iffat xonim (Zohida Burnasheva) bilan marhum Shokir Muxtoriy tayin etildilar. Bu gazetaning 5nchi sonida oti o‘zgartirilib “Mehnatkashlar tovushi” qo‘yildi. Gazeta 500-2000 nusxa orasida bosilib tarqalar edi. Bu gazetaning tarjima va tahrir ishlarida bir muddat Saidrizo Alizoda, Muhammadjon Yusufiy, qori Muhammadrahim Toji, Sadriddin Ayniy afandilar xizmat etdilar. Bularning ichida birinchi darajada uzun muddat ishlagan kishi shubhasiz Ayniy afandi edi”.

### XULOSA

XX asrning 20-30-yillarida Turkiston ASSR, BXSr, O‘zbekiston SSR, Tojikiston ASSRda nashr etilgan “Mehnatkashlar tovushi”, “Zarafshon”, “Ovozi tojik”, “Shu’lai inqilob”, “Buxoro axbori”, “Maorif va o‘qituvchi”, “Sharqi surx” va boshqa bir qancha gazeta va jurnallarda Sadriddin Ayniyning jiddiy muammo va masalalarga bag‘ishlangan ilmiy-adabiy va tarixiy yo‘nalishdagi salmoqli maqolalari mavjud. Bugungi kunda ham o‘zining dolzarbligini yo‘qotmagan bu kabi maqolalarini amaldagi imloga o‘girib, izoh va tuzatishlar bilan alohida kitob holatida chop etish istiqboldagi vazifalardan biridir.

### ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Айний С. Мавсими барфу фасли зимистон // Ал – ислоҳ, 1917 йил 1-январь;
2. Айний С. Навоий болалари учун // Болалар дунёси. 1921, № 2.
3. Айний С. Маҳмудхўжа Беҳбудий ҳазратларининг қисқача таржимаи ҳоли // “Мехнаткашлар товushi”, 1920 йил 8 апрель.
4. Айний С. Намунаи адабиёти тожик / Куллиёт. Чилди 16. – Душанбе: 2010. - С. 325.
5. Айний С. Нидо ба жавонон // Ойна. 1913, № 3; Унинг ўзи: Ҳар бир миллат ўз тили ила фахр этар. 1913, № 3; Унинг ўзи: Мозий ва ҳол; 1913, № 3. – Б. 79; Унинг ўзи: Ҳасрат. 1913, № 5; Унинг ўзи: На ўлди ё раб. 1913. № 7; Унинг ўзи: Марсия ба Мирзо Сирождиддин Ҳакими Бухорой. 1914, № 14. – Б. 241.
6. Айний С. Ҳар бир миллат ўз тили ила фахр этар // Ойна, 1914, № 35. – Б. 836-838
7. Айний С. Амир Темур бинолариндан Бибиҳоним харобаси ила мусоҳаба // Болалар йўлдоши. 1919, № 2-3, 23 май. – Б. 3.
8. Сафарзода Эҳсон. Назаре ба публисистикаи сиёсий устод Айний (Ба ифтихори 145-солагии устод Садриддин Айний). – Душанбе., 2023. – Саҳ. 4-5.
9. Абдулла Авлоний. Бурунги ўзбек вақтли матбуотининг тарихи // “Туркистон”, 1924 йил 24 июнь; Бу ҳақда батафсил
10. Ойна (1914-1915). (Нашрга тайёрловчилар: Наим Норқулов, Камолиддин Раббимов). – Тошкент: Академия, 2001.
11. Абдулла Авлоний. Бурунги ўзбек вақтли матбуотининг тарихи // “Туркистон”, 1924 йил 24 июнь.
12. Абдуазизова Н. Ўзбек журналистикаси тарихи. - Тошкент: Академия, 2002. – Б. 11.
13. Айний С. Мухтасар таржимаи ҳоли худам / Куллиёт. 16 чилд. Чилди – 1. – Сталинобод, 1958. – Саҳ. 91.
14. Ҳожи Муин. Самарқанд матбуотининг тарихи // Зарафшон. 1923 йил, 5 май.
- Агзамхўжаев С., Улуғбекова З. “Ал-ислоҳ” журнали - Туркистондаги ислохотчилик ҳаракатини ўрганиш бўйича тарихий манба (1915-1918). –Тошкент; 2021. – Б. 42-43
15. Абдулла Авлоний. Бурунги ўзбек вақтли матбуотининг тарихи // “Туркистон”, 1924 йил 24 июнь
16. Зиё Саид. Ўзбек вақтли матбуоти тарихига материаллар (1870-1927) / Танланган асарлар (Тўпловчи Ш.Турдиев). – Тошкент: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1974. – Б. 113-116.